



## National and world values of people and their diversity

Sanam OSTONOVA<sup>1</sup>

Bukhara State University

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received August 2024

Received in revised form

10 September 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

25 October 2024

**Keywords:**

values,  
national,  
youth,  
folklore,  
Uzbekistan,  
manners,  
family,  
society,  
media,  
internet.

### ABSTRACT

The formation and implementation of values are influenced by the environment in which people live, natural conditions, methods of trust, professional skills, and lifestyle. In general, values are a reflection of cultural trends and spiritual wealth, shaped and developed through the historical progression of society. These values have a positive impact on social development in the past, present, and future, and they gain social significance as they become embedded in people's consciousness.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4/S-pp105-108>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Milliy va dunyo xalqi qadriyatlari va ularning xilma-xilligi

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

qadriyatlar,  
milliy,  
yoshlar,  
xalq og'zaki,  
O'zbekiston,  
odob-axloq,  
oila,  
jamiyat,  
mediya,  
internet.

Qadriyatlaming shakilanishi, ularga amal qilish imkoniyatlari kishilar yashagan muhit, tabiiy sharoitlar, ishonch usuli, kasb malakalari yoki turmush tarzi bilan xam bog'liqdir. Umuman olganda, qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o o'tmishida, hozirgi kunda va kelajakda xam ijtimoiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy va ma'naviy boylikdir O'zbekiston yoshlari va xalqining turli millat qadriyatlariga qiziqishi ham shundan dalolat beradi.

<sup>1</sup> Lecturer, Department of English Linguistics, PhD, Bukhara State University.

# Национальные и мировые ценности народов и их многообразии

## АННОТАЦИЯ

### *Ключевые слова:*

Ценности,  
национальные,  
молодежь,  
фольклор,  
Узбекистан,  
нравы,  
семья,  
общество,  
СМИ,  
Интернет.

Формирование ценностей и возможности их реализации также зависят от среды, в которой живут люди, природных условий, уровня доверия, профессиональных навыков и образа жизни. В целом ценности представляют собой материальные и духовные богатства, сформировавшиеся и развивавшиеся на протяжении исторического пути общества. Они оказывают положительное влияние на общественное развитие в прошлом, настоящем и будущем, приобретая социальную значимость и закрепляясь в общественном сознании.

Milliy Qadriyatlaming shakilanishi, ularga amal qilish imkoniyatlari kishilar yashagan muhit, tabiiy sharoitlar, ishonch usuli, kasb malakalari yoki turmush tarzi bilan xam bog'liqdir. Umuman olganda, qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o'tmishida, hozirgi kunda va kelajakda xam ijtimoiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy va ma'naviy boylikdir O'zbekiston yoshlari va xalqining turli millat qadriyatlariga qiziqishi ham shundan dalolat beradi. qadriyatlarimiz ming yillardan beri xalq og'aki ijodida kuylanib, kengayib boyib kelmoqda. Xususan milliylik o'zbek xalqiga xos bo'lib hozirgi kunda yoshlarimizga ham etib kelgan milliylik ularning kiyinish odobiga rioya qilishlaridan ham bilsak bo'ladi. Turli millat xalqlarida ham mavjud bo'lgan qadriyatlar o'zaro o'z xalqiga mansub bo'lgan shaklda xalq og'zaki ijodida shakllanib kuylanib kelmoqdaki bundan bizning yoshlarimiz ham tele - mediya, internet orqali o'rganib kelmoqdalar. Milliy qadriyatlar - millat uchun muhim ahamiyat kasb etadigan, etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar shaklidir.

Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Oila - muqaddas tushuncha. Oila qurish - o'ta mas'uliyatli ish. «Oila - eskilik unsuri emas». U muqaddas, oilada millat kelajagi mujassam. Yoshlarni tarbiyalashda, kamolga etkazish, ilm-hunar berish, uyli-joyli qilish - aksariyat oilalarning eng oliy maqsadidir... Mahalla - o'z-o'zini boshqarishning o'zbek xalqi yaratgan eng katta yutug'i, oqilona shaklidir. Mahalla - tarbiya maskani, har bir oilaga tayanch va suyanch ekanligi ko'pchilikka ayon. Qo'ni-qo'shnilik munosabatlari uzoq tarixga ega bo'lib, asrlar davomida bu borada muayyan qadriyatlar shakllangan. «Yon qo'shnim - jon qo'shnim», «Hovli olma - qo'shni ol», «Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal» va h.k. Keksalarga hurmat - inson hayotiy tajribasi davomida shakllangan qadriyat. Jonli tabiatda hayot uchun kurash qonuniyati mavjud. Nasl qoldirish, yagi avlodga mehr qo'yish, uni oyoqqa turg'azish jon fido qilish hollari aksariyat hayvonlarda kuzatiladi. Ammo, qariyalarni e'zozlash, keksalarga ehtiram, mehr-muruvvat ko'rsatish - insoniy fazilatdir. Bularsiz milliy g'oyamizni tasavvur eta olmaymiz.

Qadriyatlaming shakilanishi, ularga amal qilish imkoniyatlari kishilar yashagan muhit, tabiiy sharoitlar, ishonch usuli, kasb malakalari yoki turmush tarzi bilan xam bog'liqdir. Umuman olganda, qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida

shakllangan va rivojlangan, o'tmishida, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy va ma'naviy boylikdir O'zbekiston yoshlari va xalqining turli millat qadriyatlariga qiziqishi ham shundan dalolat beradi. Qadriyatlar deganda biz narsa va voqealar, jamiyat moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ifodalash uchun qo'llaniladigan tushuncha. Milliy-ma'naviy qadriyatlar – "milliylik" "ma'naviyat" va "qadriyat" tushunchalari kesishgan nuqtada jamlashgan ijtimoiy hodisalarni o'z ichiga oladi.

Deylik ayrim millatlar tarixiy taraqqiyot davomida ishlab chiqarishning ma'lum saxasida yuksak layoqatni shakllantirgan, tarbiya, tafakkurning ta'siri yo'nalishiga e'tibor beradi. Milliy xarakterida, hayotga, ijtimoiy hodisalarga munosabatida o'ziga xosliklari bor. Axloqiy, huquqiy, siyosiy madaniyat sohalaridagi xatti-harakatlarda ham ma'lum ijobiy tafovutlar uchraydi. Bunga o'xshash rang-baranglik nafaqat boyligimiz, balki taraqqiyotimiz suratini tezlashtiruvchi omil bo'lishi mumkin. Bugun O'zbekiston diniy bag'rikenglik (tolerantlik) va millatlararo murosa borasida faqat MDH davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda. Tariximizning har qaysi davrida din doimo odamlarda yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishga chorlagan, yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan. Bugungi kunda ma'naviy va diniy jabhalarda kechayotgan murakkab jarayonda barcha millat va din vakillari bir-birlariga nisbatan hamjihatlik, bag'rikenglik va o'zaro hurmat tamoyillariga amal qilishlari doimiy barqarorlikning muhim omillaridan biridir.

Dunyo jamiyatida oila asosiy qadriyatlardan bo'lib hisobladi. Oila ma'naviyatining asosiy manbalari: milliy oilaviy qadriyatlar; Sharq va G'arb mutafakkirlarining oila ma'naviyati borasidagi meroslari; kitob – insonning ma'naviy kamoloti poydevori hisoblangani uchun badiiy va san'at asarlari, ommabop risolalar, ilmiy-metodik qo'llanmalar, darsliklar, esdaliklar; oilaviy namunali hayotiy tajribalar; matbuot, internet, videomateriallar, ko'rgazmali targ'ibot mahsulotlari (plakatlar, bukletlar va boshqalar) va boshqalardan iboratdir. Tadqiqotlarga ko'ra, oilaviy qadriyatlar qo'yidagi tarbiyaviy komponentlarni o'z ichiga oladi: Oila ma'naviyatining asosiy mazmuni: milliy va sulolaviy qadriyatlar asosida er-xotin, ota-ona va farzandlar, qaynona-kelin o'rtasida o'zaro ma'naviy-axloqiy munosabatlarga ko'ra, kundalik hayot tartib-qoidalariga rioya etish, oila an'analari muhabbat, sadoqat; bir biriga nisbatan qadr-qimmatlilik, kamtarlik, sabr-toqatlilik; har qanday vaziyatda o'zini ma'naviyatini namoyon eta bilish; muloqot madaniyati, ongli intizom, milliy odob doirasida so'zlash, sermulohazaliklik; saranjom-sarishtaliklik, orastalilik; turli noaxloqiy illatlardan xolis bo'lish; e'tiqodlilik, milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lish, yurish-turish, xatti-harakat qoidalariga, sog'lom turmush tarzi (kiyinish, ovqatlanish, shaxsiy gigiyena, jismoniy salomatlikni saqlash) qoidalariga amal qilish; ro'zg'orshunoslik madaniyatiga amal qilish, kattalarga hurmatda va kichiklarga nisbatan izzatda bo'lish; adabiyot va san'atga muhabbatni namoyon etish; turli millat urf-odatlarini, an'analari, tili, dini va madaniyatiga hurmat, bag'rikenglik; mehnat madaniyatidan iboratdir. Shunga ko'ra milliy liboslarga kelsak, o'zbekning milliy bosh kiyimi bo'lgan do'ppilarda ham farq bor.

Marg'ilon, Andijon, Qo'qon, Toshkent kabi ko'hna madaniy markazlar bo'lgan shaharlarimizda tayyorlanadigan ushbu milliy bosh kiyimlar shu shaharlar nomi bilan bog'langan holda ataladi. Milliy liboslar vositasida millatlar bir-birlari, Vatani, hududi haqida to'liq tasavvurga ega bo'ladilar. Milliy liboslar orqali xorijiy mamlakat fuqarolari O'zbekiston haqida to'liq tasavvurga ega bo'ladi. Xorijiy mamlakatlarda do'ppi, milliy

kiyimlarimizda faxr bilan yurgan vatandoshlarimizni ko'rib ham bundan ibrat olish mumkin. Kiyim kiyishda materiallarni, kiyim andozalarini tanlash ham kiyinish madaniyatining asosiy talablaridan hisoblanadi. Ayol yoki erkak kishi kiyim ranglari va turlarini tanlar ekan o'zining bo'y-basti, qaddi-qomati, yuz tuzilishi, teri rangi, yurish harakatlari, soch rangi, ko'z rangiga e'tibor beriladi. Ayniqsa, milliy va zamonaviy dizayn uyg'un bo'lgan liboslar qanchalik kishiga ko'rk bag'ishlaydi, har bir millat asl milliylik xususiyatlarini saqlab qoladi. Shuning uchun xotin-qizlar milliy qadriyatlarimiz, xususan, bugungi voqelikni inobatga olgan holda kiyinish madaniyatiga rioya etishlari maqsadga muvofiq. Milliy liboslarda yurishning o'z udumlari mavjud. O'zbek millatiga, odobi, axloqi, gapirish, kattaga hurmat-izzat, borasida yaqin bo'lgan xalqlar: Turk, Qirg'iz, Tojik, Afg'on, Eron va Arab lardir.

Hozirgi kunda bu xalqlarning milliy urf-odatlarini o'rganish ularning ruhiy ongida o'zbek xalqiga bo'lgan hurmatini ko'rinarli darajada sezish mumkinki yoshlarimiz o'rtasida Turk, Eron xalqi yoshlari bilan turmush qurish ham qadriyatlarining yaqinligidan dalolat beradi. Xususan, Turk xalqi Usmoniylar davridan hozirga qadar qadrlab kelayotgan milliy kiyim boshlari, kelin salomlar, hino bandon va to'y tomoshalari bizning o'zbek xalqimizga xos joylari mavjud. Bugungi kunda Turkiya an'anaviy xalq kiyimlari Usmonli turklar imperiyasi modasining kuchli ta'siri ostida va imperiya hukmronligi davrida va undan keyin sodir bo'lgan o'zgarishlarga asoslangan. Usmonli turklar imperiyasining chegaralari Markaziy Osiyo, Sharqiy Yevropa, Janubiy Yevropa, Yaqin sharq, Markaziy Yevropa va Andomlining o'zida mavjud bo'lgan ko'plab individual madaniyatlar, xalqlar, dinlar va an'analarni o'z ichiga olgan. Usmonli turklar imperiyasi madaniyati, xususan, Usmonli modasi Usmonlilar hukmronligining o'tgan asrlarida o'zaro bir-biri bilan aloqada bo'lgan ushbu alohida madaniyatlar va dinlarning uyg'unligi sifatida rivojlandi.

Xalqlar aro qadriyatlarining ham o'ziga xos milliy shakllanishi mavjud masalan, Hindiston xalqini olsak, milliy bayramlarida biri bo'lgan "Devali" bayramini juda sevib nishonlaydi, bunda turli xil ranglar milliy kiyimda qizlar va bolalar birbirlariga ranglar sochib qo'shiqlar aytib mehr va xursandchilik hadya qiladilar. Yoki, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Arabiston xalqi yoshu qarisi milliy kiyinishda dunyoning qaysi chekkasida yashamisnar o'z milliy kiyimlarini qadrlab avaylab kiyadilar. Bundan xulosa shuki dunyoning barcha millati o'z diniy va dunyoviy qadriyatlarini qadrlab aloddan avlodga etkazadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ж.Туленов. Қадриятлар фалсафаси.- Т.: 1998.
2. Ачилдиев А.С. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. -Т., Ўзбекистон, 2004
4. Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent Ma'naviyat 2008
5. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent O'zbekiston 2017
6. National traditions and rituals in modern Uzbekistan (basing on the analysis of Uzbek traditional meal "Palov")
7. UZBEK CLOTHES THROUGH THE PRISM OF THE NATIONAL CUSTOMS AND TRADITIONS OF THE ETHNOS AT THE XIX - XX CENTURIES